O‘ZBEKISTONDA TARIXIY YODGORLIKLARNI TA’MIRLASH VA MUHOFAZA QILISH MUAMMOLARI

Samarov Faxriddin Uralovich
Qarshi xalqaro universiteti
samarovfaxriddin07@gmail.com,

Annotasiya. *Ushbu maqolada mamlakatimiz hududidagi madaniy meros obyektlarini ta’mirlash, qayta tiklash saqlash va muhofaza qilish borasidagi muammolar ilmiy jihatdan chuqur tahliletilgan. Unda tarixiy yodgorliklarning tabiiy yemirilishi, iqlimiy va inson omillar ta’siri, ta’mirlash va tuzatish ishlari davomida zamonaviy qurilish materiallaridan me’yoridan ortiq foydalanish qadimiy obidalarning asl qiyofasini saqlashda salbiy ta’sir etishi misollar orqali yoritilgan. Shu bilan birga, qadimiy yodgorliklarni ta’mirlash va qayta tiklash jarayonlarida ilmiy-metodik yondashuvlarning yetarli darajada qo‘llanilmasligi hamda malakali mutaxassislar va restavratorlar tayyorlash muammosi, mablag‘ taqchilligi, muhofaza hududlariga doim ham rioya etilmasligi, monitoring hamda nazorat tizimining takomillashtirilishi zarurligi ilmiy jihatdan yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Yangi O‘zbekiston, yodgorliklar, qadimiy, ta’mirlash, qayta tiklash, saqlash, muhofaza etish, Shahrisabz, Samarqand, Buxoro, madaniy meros obyektlari, zamonaviy texnologiyalar, qonun hujjatlari, restavratorlar.*

Annotation. *This article provides an in-depth scientific analysis of the problems associated with the restoration, reconstruction, preservation, and protection of cultural heritage sites in Uzbekistan. It examines the natural deterioration of historical monuments, the impact of climatic and human factors, as well as the adverse effects of excessive use of modern construction materials during repair and restoration works on preserving the original appearance and historical authenticity of ancient monuments. These issues are illustrated with relevant examples. The article also highlights the insufficient application of scientific and methodological approaches in the restoration and reconstruction of ancient monuments, the challenges related to training qualified specialists and conservators, funding shortages, the failure to consistently comply with protected-area regulations, and the need to improve monitoring and control systems for the preservation and protection of cultural heritage sites.*

Keywords: New Uzbekistan, monuments, ancient, restoration, reconstruction, preservation, conservation, Shahrisabz, Samarkand, Bukhara, cultural heritage sites, modern technologies, legislation, conservators.

Аннотация. *В данной статье представлен углублённый научный анализ проблем, связанных с реставрацией, восстановлением, сохранением и охраной объектов культурного наследия на территории Узбекистана. Рассматриваются вопросы естественного разрушения исторических памятников, воздействия климатических и антропогенных факторов, а также негативного влияния чрезмерного использования современных строительных материалов в ходе ремонтно-реставрационных работ на сохранение первоначального облика и исторической аутентичности древних памятников. Данные проблемы проиллюстрированы соответствующими примерами. Кроме того, в статье освещаются вопросы недостаточного применения научно-методических подходов в процессе реставрации и восстановления древних памятников, проблемы подготовки квалифицированных специалистов и реставраторов, нехватки финансовых средств, несоблюдения в полной мере режима охранных зон, а также необходимость совершенствования систем мониторинга и контроля в целях сохранения и охраны объектов культурного наследия.*

*Ключевые слова**:** Новый Узбекистан, памятники, древние, реставрация, восстановление, сохранение, консервация, Шахрисабз, Самарканд, Бухара, объекты культурного наследия, современные технологии, законодательство, реставраторы.*

Kirish.

Tarixiy yodgorliklar har bir xalqning madaniy o‘zligi va tarixiy xotirasining muhim tarkibiy qismini tashkil etadi. Yirik sivilizatsiyalar va tarixiy savdo yo‘llari chorrahasida joylashgan O‘zbekiston, ayniqsa, boy va xilma-xil madaniy merosga ega. Samarqand, Buxoro, Qarshi, Shahrisabz, Xiva va boshqa tarixiy shaharlarda Markaziy Osiyoning ko‘p asrlar davomida siyosiy, iqtisodiy, diniy, ilmiy va madaniy taraqqiyotini aks ettiruvchi ko‘plab tarixiy-me’moriy obidalar saqlanib qolgan. Mazkur qadimiy yodgorliklar nafaqat qimmatli tarixiy manbalar, balki mamlakatning madaniy o‘zligi va turizm salohiyatining muhim unsurlari ham hisoblanadi. Shu sababli ularni ta’mirlash, restavratsiya qilish, saqlash va muhofaza etish O‘zbekistonda zamonaviy madaniy meros siyosatining muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Biroq tarixiy yodgorliklarni saqlash ilmiy, texnik, tashkiliy, moliyaviy va huquqiy jihatdan murakkab muammolar majmuini o‘z ichiga oladi. Vaqt o‘tishi bilan me’moriy yodgorliklar namlik, haroratning o‘zgarishi, yog‘ingarchilik, shamol eroziyasi, seysmik faollik va boshqa atrof-muhit omillari ta’sirida tabiiy yemirilishga duch keladi. Bundan tashqari, inson faoliyati, shaharlarning nazoratsiz rivojlanishi, noto‘g‘ri ta’mirlash amaliyotlari va nomuvofiq zamonaviy qurilish materiallaridan foydalanish tarixiy inshootlarning yemirilishini tezlashtirishi hamda ularning dastlabki me’moriy qiyofasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Tarixiy yodgorliklarni restavratsiya qilishdagi eng muhim muammolardan biri konstruktiv barqarorlikni ta’minlash bilan birga tarixiy obyektning asl qiyofasini saqlash o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashdir. Ayrim hollarda ta’mirlash va restavratsiya ishlari zamonaviy materiallardan haddan tashqari foydalanishni yoki asl me’moriy elementlarni yangi tayyorlangan qismlar bilan almashtirishni o‘z ichiga olishi mumkin. Garchi bunday aralashuvlar yodgorlikning konstruktiv jihatdan mustahkamlanishiga xizmat qilsa-da, ayni paytda uning tarixiy, me’moriy va badiiy qiymatini pasaytirishi mumkin. Shu sababli restavratsiya ishlari kompleks tarixiy, me’moriy, arxeologik va texnik tadqiqotlarga asoslanishi hamda konservatsiya va restavratsiyaning belgilangan tamoyillariga muvofiq amalga oshirilishi lozim.

Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, madaniy meros yodgorliklariga zarar yetkazilishi ayniqda arxeologik obyektlarga nisbatan ko‘pligi ma’lum bo‘ladi. Ayniqda XX asrda bu holat nihoyatda og‘ir va tarixiy yodgorliklarni katta qismi vayron etilganligini ko‘rish mumkin. Jumladan, yurtimizda 1960-yilning boshlarida 30 mingtaga yaqin madaniy meros yodgorliklari mavjud bo‘lgan bo‘lsa, paxta dalalarining kengayishi, ko‘hna obidalardagi yemirilishlar va buzilishlar natijasida XX asrning 80-yillarida bu kabi tarixiy obyektlarning soni 9 mingtaga yaqin bo‘lsa, 90-yillarda ularning soni atigi 5391 tani tashkil qilganligi 47 ma’lum bo‘ldi. Bu borada shuni ham alohida ta’kidlash lozimki, o‘tgan XX asrning oxirgi 30 yili ichida (1960-1990 yy) O‘zbekistondagi 20 mingtadan ortiq madaniy meros obyektlari yo‘q bo‘lib ketgan. Yo‘qotilgan tarixiy obidalarning katta qismini arxeologik yodgorliklar tashkil etadi[1.17].

Sovet davrida tarixiy yodgorliklarga bo‘lgan bu kabi salbiy munosabatni faqat arxeologik obyektlarda emas, tarixiy-me’moriy obidalarda ham kuztish mumkin. Xususan, 1946-yil 17-oktyabrda Buxoro shahar ijroiya qo‘mitasi olib borilayotgan obodonlashtirish ishlari uchun Namozgoh darvozasini buzishga va uning g‘ishtlarini zavod qurilishi uchun ajratish maqsadida foydalanishga ruxsat bergan. Shuningdek,

Yormuhammad Otaliq xonaqohining ham 1950-yilda vayron qilinganligi to‘g‘risida ma’lumotlar uchraydi[2.20].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

Tarixiy-me’moriy yodgorliklarni ta’mirlash, restavratsiya qilish, saqlash va muhofaza etish masalalari mahalliy hamda xorijiy tadqiqotchilar tomonidan turli yo‘nalishlarda o‘rganilgan. Mavjud ilmiy adabiyotlarda tarixiy obidalarning me’moriy xususiyatlari, ularni konservatsiya va restavratsiya qilish tamoyillari, tarixiy asl ko‘rinishini saqlash hamda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Shuningdek, madaniy meros obyektlarini huquqiy muhofaza qilish, ularni muzeylashtirish va zamonaviy ehtiyojlarga moslashtirish bo‘yicha ham muayyan tadqiqotlar amalga oshirilgan.

O‘rganish natijalariga ko‘ra, shahar markazidan uzoqda joylashgan mahalliy ahamiyatga egan bo‘lgan tarixiy yodgorliklarni ta’mirlash va tuzatish ishlari o‘z vaqtida amalga oshirilmayotganligi sababli ba’zi ko‘hna obyektlar nurash xattoki yo‘q bo‘lib ketish holatiga yetib kelgan. Jumladan, Qashqadaryo viloyati Qarshi shahri Haramjo‘y mahallasida joylashgan XVI-asrga oid bo‘lgan tarixiy masjid ana shunday qadimiy yodgorliklardan biri hisoblanadi. Mahalliy aholi vakillarining so‘zlariga ko‘ra, ushbu tarixiy masjid hududida 1995–2000-yillarda hashar yo‘li bilan tuzatish ishlari amalga oshirilgan bo‘lsada, ming afsuski bu ishlar umuman me’morchilik ilmidan xabari yo‘q ustalar tomonidan bajarilgan[3]. Shuningdek, aytish lozimki, mazkur masjid hududida 2004-yillarga qadar qadimiy quduq ham mavjud bo‘lgan. Ammo mahalliy aholi vakillari tomonidan ushbu quduq xavfsizlik chorasi sifatidami yoki boshqa sabab bilan butunlay ko‘mib yuborilgan.

Qadimiy yodgorlijklar bilan bog‘liq bu kabi salbiy holatlarni Samarqand viloyatida ham kuzatish mumkin. Xususan, ushbu hududdagi XIX-asrda buynod etilgan Toshkandiy Mullo Qosim masjidi Toshkentlik ustalar tomonidan borpo etilgan. 1941–1944-yillarda uysiz va ota-onasiz yetim bolalarga boshpana sifatida masjiddan foydalangan. Ammo bugun bu masjidda namoz o‘qilmaydi, undan mahalla ahli u-bu narsalarni saqlaydigan ombor sifatida foydalanib kelmoqda. Ushbu obyekt devorlarining poydevor qismi biroz zaxlagan. Bu holatni esa fuqarolar tabiat omillari ta’siri bilan izohlamoqda. Mahalliy aholining ta’kidlashicha, ushbu masjid devorlari yomg‘ir va qor suvlari ta’sirida yillar davomida nurab, yiqilib tushgan[4.42-43]. Bu borada madaniy meros agentligining hududiy boshqarmalari xodimlari bilan ayni muammo xususida so‘ralganida, yaqin yillarda ta’mirlash va qayta tiklash ishlari rejada borligi, ammo ayni vaqtda mablag‘ bilan bog‘liq muammolar borligini ma’lum qildilar.

Tadqiqot metodologiyasi.

Yana bir muhim masala ayrim restavratsiya loyihalarida ilmiy-metodik yondashuvlarning yetarli darajada qo‘llanilmasligidir. Samarali konservatsiya yodgorlikni batafsil hujjatlashtirish, uning dastlabki materiallari va qurilish texnikalarini aniqlash, hozirgi jismoniy holatini baholash hamda tegishli aralashuvlarni puxta rejalashtirishni talab etadi. Shu bois yuqori malakali me’morlar, tarixchilar, arxeologlar, konservatorlar, muhandislar va restavratsiya mutaxassislarining mavjudligi muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, an’anaviy restavratsiya usullari hamda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash qobiliyatiga ega mutaxassislarni tayyorlash va ularning kasbiy malakasini oshirish muhim vazifa bo‘lib qolmoqda.

Bu borada shuni ham qo‘shimcha qilish lozimki, so‘nggi yillardagi iqlim o‘zgarishlari ham madaniy meros yodgorliklarining saqlash ishlarini yanada qiyinlashtirmoqda. Bu haqda Madaniy meros agentlik direktori birinchi o‘rinbosari Tursunali Kuziyev quyidagilarni ta’kidlagan: “Iqlim o‘zgarishi sababli yog‘och, paxsa, g‘isht va toshdan qurilgan qadimiy obyektlarga ham juda katta ziyon yetmoqda. Ularni bog‘lab turadigan moddalar: loy, sement va boshqalar havo haroratining yuqoriligi tufayli namligini yo‘qotib, quriyapti va to‘kilib ketmoqda” [5].

Shuningdek, Madaniy meros obyektlarini restavratsiya qilish arxitektori Fazliddin Davlatovning aytishicha, sho‘rlanish ham tarixiy yodgorliklarga ziyon yetkazayotgan asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, F.Davlatov quyidagilarni qo‘shimcha qilgan: “Qoraqalpog‘iston Respublikasi hamda Xorazm, Buxoro, Navoiy viloyatlarida katta sho‘rlanish bor. Tarixiy binolarimiz orasida xom g‘isht, paxsa, sinchdan qurilganlari ko‘p. Bunday obyektlar esa yer osti suvining zaxini o‘ziga tortadi. Natijada sho‘r suv binolarni yemiradi va shu tariqa madaniy meros obyektlarining umri qisqaryapti”[5].

Tarixiy yodgorliklarni muhofaza qilish, shuningdek, qonunchilik, institutsional boshqaruv, moliyaviy ta’minot, monitoring va muhofaza hududlari to‘g‘risidagi qoidalarga rioya etishning samaradorligiga sezilarli darajada bog‘liq. Moliyalashtirishning yetarli emasligi, monitoringning sustligi, meros hududlarida nazoratsiz qurilishlar va tegishli muassasalar o‘rtasidagi muvofiqlashtirishning zaifligi madaniy merosni saqlash uchun qo‘shimcha xavflarni yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli tarixiy yodgorliklarni barqaror saqlash nafaqat restavratsiya tadbirlarini, balki profilaktik konservatsiya, muntazam monitoring, huquqiy muhofaza, professional ekspertiza va jamoatchilik ishtirokini qamrab oluvchi kompleks tizimni talab etadi.

Tahlil va natijalar.

O‘rganish natijalari shuni ko‘rsatadiki, madaniy meros obyektlarini, xususan, arxeologik yodgorliklarni saqlash va muhofaza qilishning samarali yo‘llaridan biri

ularni muzeylashtirish hisoblanadi. Muzeylashtirish arxeologik obyektlarning tarixiy-madaniy qiymatini saqlab qolish, ularni ilmiy asosda muhofaza qilish, mavjud holatini kelajak avlodlarga yetkazish hamda jamoatchilik uchun mazkur meros obyektlarining ilmiy-ma’rifiy va turistik salohiyatidan foydalanish imkonini beruvchi maqbul yondashuvlardan biridir. Bu borada aytish kerakki, hozirgi vaqtda Buxoro viloyatidagi Poykent shaharchasi, Surxondaryodagi Sopollitepa, Kampirtepa arxeologik yodgorliklarida muzeylashtirish ishlari amalga oshirildi. [6.5]. Ammo mamlakatimizda joylashgan arxeologik yodgorliklarning katta qismida muzeylashtirish ishlari halicha amalga oshirilgani yo‘q. Bu kabi tarixiy obyektlar sifatida Qashqadaryo viloyatidagi Yerqo‘rg‘on, Samarqand hududidagi Afrosiyob, Qoraqalpog‘istondagi Qo‘yqirilganqal’alarni ko‘rsatib o‘tish mumkin.

Madaniy meros obyektlarini saqlash va ularning tarixiy-me’moriy qimmatini kelajak avlodlarga yetkazishning samarali yondashuvlaridan yana biri ularni zamonaviy funksional ehtiyojlarga moslashtirish hisoblanadi. Bunday yondashuv tarixiy inshootlardan zamonaviy sharoitda oqilona foydalanish bilan bir qatorda, ularning me’moriy qiyofasi, tarixiy xususiyatlari va autentikligini imkon qadar saqlab qolishga xizmat qiladi. Bu borada shuni ham alohida ta’kidlash lozimki, tarixiy obyektlarni zamonaviy maqsadlarda foydalanishga moslashtirish vaqtida ularni qat’iy talablar ham qo‘yilishi lozim.

Jumladan, Umarova M va Hayitova L o‘zlarining O‘zbekiston tarixiy saroylarini zamonaviy maqsadlarga moslashtirish nomli ilmiy maqolasida bu borada quyidagicha to‘xtalib o‘tganlar. “Har qanday saroy hamda arxitektura yodgorliklarini zamonaviy maqsadlarga moslashtirishga qo‘yiladigan asosiy talab, yodgorlikni maksimal darajada asrab–avaylashni va saqlashni taqoza etadi; har qanday arxitektura yodgorliklarini zamonaviy maqsadlarda moslashtirishga individual tarzda yondashish talab etiladi; saroylar, yodgorlik(ansambllar)ning shakllanish tarixi va o‘ziga xos jihatlarini e’tiborga olish, ularni asoslab berish, ya’ni loyihalash usullarini aniqlash talab etadi”[7.47].

Xulosa va takliflar.

Umuman olganda, o‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda tarixiy-me’moriy yodgorliklarni ta’mirlash, restavratsiya qilish va muhofaza etish jarayonida muayyan ijobiy tajriba shakllangan bo‘lsa-da, mazkur sohada ilmiy-metodik, texnologik, tashkiliy, moliyaviy va huquqiy xarakterdagi qator muammolar mavjud. Ayniqsa, tarixiy obyektlarning tabiiy yemirilishi va antropogen ta’sirlar, ta’mirlash jarayonlarida zamonaviy qurilish materiallaridan noo‘rin

foydalanish hamda tarixiy material va konstruksiyalarning almashtirilishi yodgorliklarning asl qiyofasi va tarixiy autentikligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Tadqiqot davomida tarixiy yodgorliklarni saqlash samaradorligi faqat ularni ta’mirlash yoki qayta tiklash bilan cheklanmasligi, balki muntazam monitoring, profilaktik konservatsiya, ilmiy ekspertiza, muhofaza hududlarini samarali boshqarish va foydalanish rejimini to‘g‘ri tashkil etish bilan uzviy bog‘liqligi aniqlandi. Shu nuqtayi nazardan, restavratsiya jarayonida “minimal aralashuv”, tarixiy materiallarni imkon qadar saqlab qolish va obyektning autentikligini ta’minlash tamoyillariga ustuvor ahamiyat berish zarur.

Shuningdek, zamonaviy raqamli texnologiyalar — 3D-lazer skanerlash, fotogrammetriya, GIS, raqamli modellashtirish va masofaviy monitoring vositalaridan foydalanish tarixiy yodgorliklarning texnik holatini aniqlash, o‘zgarishlarni muntazam kuzatish va restavratsiya jarayonlarini ilmiy asosda rejalashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Arxeologik yodgorliklarni muzeylashtirish ham ularni saqlash va jamoatchilikka namoyish etishning samarali shakllaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, tarixiy binolarni zamonaviy funksional ehtiyojlarga moslashtirishda ularning tarixiy-me’moriy qiyofasi va autentikligini saqlash asosiy shart bo‘lishi lozim.

O‘zbekistonda tarixiy yodgorliklarni uzoq muddatli saqlash uchun restavratsiya, konservatsiya, monitoring, huquqiy muhofaza, ilmiy ekspertiza va zamonaviy texnologiyalarni yagona tizim asosida uyg‘unlashtirish zarur. Bunday kompleks yondashuv mamlakatning tarixiy-madaniy merosini asrab qolish bilan birga, uning ilmiy, ma’rifiy va turistik salohiyatidan samarali foydalanish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Samarov F.U. O‘zbekiston janubiy viloyatlarida tarixiy-me’moriy obidalarni ta’mirlash, qayta tiklash va o‘rganilishi tarixi (1991–2021 yy.): monografiY. – Qarshi: «YURISTIM TEAM» MChj, 2026. – 198 b.

2. Abdullayeva D. Sovet hokimiyati davrida buxoro me’moriy obidalari ta’mirotidagi muammolar. Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar (2024 йил № 4). http://interscience.uz/. – 19-23 b.

3. Dala tadqiqotlari. O‘.Xabibov. Qarshi shahri. Haramjo‘y mahallasi. 2026-yil 5-sentyabr.

4. Nurmuradova Y, Olenkov V, Olmasov D. Samarqand shahrida joylashgan tarixiy mahalla markazlarini tadqiq qilish va saqlashda tabiiy iqlim sharoitlariga moslashtirish. Me’morchilik va qurilish muammolari. 2026 йил, 1 сон. 41-44.

5. Gazeta.uz. Iqlim o‘zgarishi O‘zbekistondagi madaniy meros obyektlariga jiddiy ziyon yetkazmoqda. https://www.gazeta.uz/oz/2025/04/02/madaniy-meros/

6. Turayeva Z.M, Nazarova D.M. Arxeologik yodgorliklarda ochiq osmon osti muzey qa’la barpo etish masalalri. Me’morchilik va qurilish muammolari. 2017-yil. 1-son. 5-8 b.

7. Umarova M.K, Hayitova L.B. O‘zbekiston tarixiy saroylarini zamonaviy maqsadlarga moslashtirish. Me′morchilik va qurilish muammolari. 2015 yil, 2-son. 47-49 b.